Электрон рақамли имзо орқали тасдиқланган, Ҳужжат коди: VP1701801535

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO’G’RISIDA HUQUQIY XULOSA

№ RL38620317

1. Loyihaning turi. Shartnoma.

2.Loyihaning nomi.

Taxiatosh tumani Issiqlik tarmoqlari MCHJ va Taxiatosh tumani Tibbiyot birlashmasi o’rtasidagi 19.01.2022 yilgi issiqlik energiyasini va Issiq suvda ta'minlash bo’yicha shartnoma.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot.

Tibbiyot birlashmasining 19.01.2022 yilgi shartnoma loyihasi Taxiatosh tumani Yuridik xizmat ko’rsatish markaziga huquqiy ekspertizadan o’tkazish uchun 19.01.2022yilda E-huquqshunos” elektron tizimi orqali berilgan.

Taxiatosh tumani Issiqlik tarmoqlari MCHJ va Taxiatosh tumani Tibbiyot birlashmasi o’rtasidagi 19.01.2022 yilgi issiqlik energiyasini va Issiq suvda ta'minlash bo’yicha shartnomasi bir yilga tuzilgan.

## X u l o s a

Shartnoma loyihasi O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va O’zbekiston Respublikasining qonuni Xo’jalik yurituvchi subektlari faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to’g’risidagi 1998 yil 29 avgust 670-I-sonli amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko’rsatish faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-5168 sonli qarorning 6-bandida, markazlar tomonidan yuridik xizmat ko‘rsatilishi belgilangan tashkilotlar tomonidan Markazlar bilan kelishilmagan holda yuridik tusdagi hujjatlar qabul qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi va bunday hujjatlar yuridik kuchga ega emas hamda ular qabul qilingan paytdan e’tiboran hech qanday huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarmaydi deb ko’rsatilgan.

Mazkur qarorning 3-bob, 16 bandida yuridik xizmat ko‘rsatiladigan tashkilotlar, shuningdek uning tarkibiy tuzilmalarining qonunchilik hujjatlari bajarilishini ta’minlamayotgan yoxud ularni buzayotgan rahbarlari va xodimlarini javobgarlikka tortish haqida tashkilotning rahbariyatiga takliflar kiritish huquqi bor ekanligi belgilangan.

Yuqorida keltirilagan qonun talablari asos Taxiatosh tumani Tibbiyot birlashmasi tomonidan, markazga buyruq, shartnoma, yuridik tusdagi barcha hujjatlarni o’z vaqtida, to’liq qo’shimcha hujjatlarni ilova qilib “E-huquqshunos” elektron tizimi orqali berishingizni ma’lum etamiz.

**Taxiatosh tumani Yuridik xizmat ko’rsatish markazi boshliği:** **O.Babanov**

21 yanvar 2022 yil